

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA HAMKORLIKDA O'QITISH ASOSIDA DARS  
JARAYONINI TASHKIL VA UNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

**M.A. Qosimova**

*Buxoro davlat universiteti, maktabgacha ta'lim kafedrasи  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda zamonaviy ta'lim yondashuvlariga asoslangan hamkorlikda o'qitish ta'lim texnologiyasidan foydalanish, o'qituvchining kasbiy bilimdonligi, noan'anaviy usullar asosida o'quv jarayonini tashkil etishi, dars samaradorligini oshirishi, o'quvchilarning fanga oid va tayanch kompetensiyalarini rivojlanishda hamkorlikdagi o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari, o'quvchilarning istiqboldagi rivojlanishlari uchun zarur bo'lgan hamkorlikdagi faoliyat tajribasini o'zlashtirish imkoniyatlari haqida so'z boradi.

**Tayanch so'z va tushunchalar:** zamonaviy ta'lim, pedagogik hamkorlik, hamkorlikda o'qitish, do'stona munosabat, ta'lim jarayoni, shaxsiy xulq – atvor, kompetensiya.

**Аннотация:** В данной статье речь пойдет об использовании технологии совместного обучения в начальных классах на основе современных подходов к обучению, профессиональной компетентности учителя, организации учебного процесса на основе нетрадиционных методов, повышении эффективности урока, способах использования технологии совместного обучения в развитии предметных и базовых компетенций учащихся, возможностях усвоения опыта совместной деятельности, необходимых для перспективного развития учащихся.

**Базовые слова и понятия:** современное образование, педагогическое сотрудничество, совместное обучение, дружелюбие, образовательный процесс, личностное поведение, компетентность.

**Annotation:** this article will talk about the use of collaborative teaching educational technology based on modern educational approaches in elementary grades, professional erudition of the Teacher, Organization of the educational process based on unconventional methods, improving lesson efficiency, methods of using collaborative teaching technology in the development of students' science-related and base competencies, opportunities for mastering the experience of

**Key words and concepts:** modern education, pedagogical cooperation, collaborative teaching, friendly relations, educational process, personal behavior, competence.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga maqsadga muvofiq tarzda ta'lim-tarbiya berish natijasidagina ularda shaxslik sifatlari shakllantiriladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar hamkorlikda faoliyat ko'rsatish va axloqiy xulq-atvor asoslarini egallaydilar. Buning natijasida axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish, ijtimoiy yo'naliishlarni egallash

jarayoni sodir bo‘ladi. Katta yoshdagilar, jumladan, ota-onalari, o‘qituvchilari, tengdoshlari va atrofdagilari bilan yangicha munosabat ularni jamoaga jipslashtirish, faoliyatning yangi turiga jalb etish ularning shakllanishlari va ijtimoiylashuviga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Buning natijasida ular jamoa a’zolari orasida o‘ziga xos munosabat tajribasi, xarakter, iroda tarkib topadi, ma’naviy-axloqiy rivojlanish jarayoni vujudga keladi. “Mazkur yoshdagi bolalar o‘z idroklarining aniqligi, ravonligi, sofligi, o‘tkirligi bilan boshqa davrdagi insonlardan keskin farqlanadilar. Ongli hatti-harakat ehtiyojlarining mavjudligi, o‘qituvchi shaxsiga ishonch va yuksak ehtirom yuqori bo‘ladi. Bu yosh davrida tafakkurning faolligi kuzatiladi, o‘quv fanlariga ijobjiy munosabat, jamoat oldida mas’uliyatni his qila bilish, bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini anglash tuyg‘ulari tarkib topadi. Kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarda psixik jihatdan o‘qishi munosabati bilan yaratilgan obrazlarni, tabiat va jamiyatning obyektiv qonunlariga suyangan holda baholash ko‘nikmasi takomillashadi”. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etar ekan, ushbu holatlarning barchasini inobatga olish lozim bo‘ladi.

Albatta, bolalarni tarbiyalash va ma’naviy-axloqiy rivojlantirish ular maktabga kelgunga qadar ham amalga oshiriladi. Maktab ta’limi jarayonida esa bolalarni bunday rivojlantirish qat’iy tarzda qabul qilingan axloqiy me’yorlar va tartib-qoidalar doirasida amalga oshiriladi. Mazkur me’yorlar o‘quvchilarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi, ijtimoiy munosabatlar hamda oila va jamoadagi xulq-atvori, xatti-harakatlari, kundalik faoliyatini tartibga soladi. O‘quvchi o‘qituvchilari, sinfdoshlari bilan o‘zaro munosabatlari va hamkorlikdagi ta’lim-tarbiya jarayonida jamoat tomonidan qabul qilingan normalar, axloqiy qoidalarga amal qilishi talab etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy tushunchalari va xulosalari butun ta’lim jarayonida sezilarli tarzda boyib boradi. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni o‘quvchilar orasida o‘zaro hamkorlik asosida jamoaviy munosabatlarning vujudga kelishiga alohida o‘rin egallaydi. Samarali ta’lim-tarbiya natijasida o‘quvchilar o‘zlarining istiqboldagi rivojlanishlari uchun zarur bo‘lgan hamkorlikdagi faoliyat tajribasini o‘zlashtiradilar. Ular jamoa uchun hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Birinchi sinf o‘quvchilarining axloqiy xulosalari asosan o‘zlarining shaxsiy tajribalariga asoslanadi. Ular o‘qituvchi va ota-onalarining aniq ko‘rsatmalari asosida tegishli xulosalar chiqaradilar. II-III sinf o‘quvchilari esa shaxsiy xulq-atvor tajribalari bilan bir qatorda o‘qituvchilar va ota-onalarining ko‘rsatmalari, atrofdagilarning tajribalari va xatti-harakatlarini tahlil qilish barobarida o‘qigan badiiy adabiyotlari va ko‘rgan filmlaridagi voqelikka ham tayanadilar. Bu esa ularning axloqiy xulq-atvorlarini tavsiflash imkonini beradi. Agar 1-2- sinf o‘quvchilari kattalarning ko‘rsatmalariga qat’iy amal qilgan holda ijobjiy xatti-harakatlarni amalga oshirsalar, 3-4- sinf o‘quvchilari bunday harakatlarni asosan o‘z tashabbuslari bilan amalga oshiradilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari irodaning umumiy tarzda yetishmasligida namoyon bo‘ladi. Kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilar belgilangan maqsadga intilish uchun uzoq kurashish tajribasiga ega bo‘lmaydilar. Ular istagan paytda o‘z maqsadlaridan voz kechishlari mumkin. Bunday o‘quvchilar o‘z kuchlari va imkoniyatlariga nisbatan ishonchni yo‘qotadilar. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bu yoshda o‘z rejalari va maqsadlari haqida batafsил o‘ylash imkoniyatiga ega emaslar. Natijada ular shoshilinch qarorlar qabul qiladilar. Irodaviy zo‘riqishga nisbatan yetalicha layoqatga ega bo‘lmagan o‘quvilar qiyinchiliklarga duch kelganlarida o‘z maqsadlaridan osongina voz kechadilar.

Kichik mакtab yoshida o‘quvchilarning badiiy-estetik rivojlanishlari ham samarali kechadi. Natijada ular rasm chizish, musiqa chalish, qo‘shiq aytish, gimnastika mashqlarini bajarish bilan astoydil qiziqadilar. O‘zaro muvofiq keladigan faoliyat asosida ular badiiy asarlarni idrok etish orqali ularda estetik his-tuyg‘ular shakllanadi.

Birinchi sinf o‘quvchilari mакtabga kelgan dastlabki davrlarida o‘zlarini sinf jamoasining tarkibiy qismi ekanligini his etmaydilar. Ular muayyan darajada bir-birlari bilan bog‘langan, biroq mustaqil ekanliklarini namoyon etadilar. O‘quvchilar jamoasi o‘qituvchining keng ko‘lamdagи harakatlari natijasida har bir o‘quvchi jamoaning yutug‘i va kamchiliklari uchun birgalikda o‘zaro harakat qilganlarida shakllanadi. O‘quvchilarda jamoaviylik ruhini singdirish ularda umumiy tarzda jamoa bo‘lib ishlash tajribasini hosil qiladi. Jamoaviylikning shakllanishida sport musobaqalari, turli o‘yin darslari, “Kamalak” tashkilotining faoliyati, sinfdan tashqari tadbirlar alohida ahamiyatga ega. Aynan mana shu tadbirlar jarayonida o‘quvchilar bir jamoa sifatida hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish tajribasini o‘zlashtiradilar. Ular jamoada faoliyat ko‘rsatishga oid axloqiy me’yorlarni o‘zlashtiradilar. Bir-birlariga yordam ko‘rsatish, hurmat qilish hissi o‘quvchilar orasida o‘zaro do‘stlik, o‘rtoqlik munosabatlarining qaror topishi va mustahkamlanishiga olib keladi. Shu tariqa o‘quvchilarning shaxslararo munosabatlarga oid tajribalari ortadi.

Shu sababli boshlang‘ich ta’limda hamkorlikda o‘qitish muhitini yaratish ko‘p jihatdan jamoa a’zolari orasidagi tenglikni qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashi, shaxs sifatida rivojlanayotgan bolada boshqalar bilan hamkorlik qilishi uchun uning o‘zi mustaqil tashabbusni namoyon etishi, o‘z fikriga boshqalarda ishonch hosil qildira olishi, erkin fikrashi uchun keng imkoniyatlar ochilishi bilan bog‘liq holda qaraladi.

O‘zaro hamkorlik muhitida ta’lim olayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchisi individual ravishda rivojlanadi, uning jamiyat oldidagi mas’uliyatlilik hissi oshadi, erkin faoliyat ko‘rsatishga zamin hozirlaydi.

Hamkorlikda o‘qitish muhiti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikr va qarashlardagi xilma-xillikni tushunish va shunga intilishni rivojlantiradi. Chunki «bir fikr hukmron joyda mutaassiblik hukmron bo‘ladi» (Forobiy). Ikki fikr mavjud joyda hurfikrlilik boshlanadi. Uch fikr tug‘ilgach, kimdir ularni bir fikr qilib jamlashga intiladi. Bu murakkab vazifa, shu bilan birga intilish demokratik idealning mohiyatini tashkil etadi.

Mustaqil fikrlay oladigan kishilargina, boshqa odamlarni tushuna olish, ulardagi insonparvarlikka yo‘nalganlikni ko‘ra olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Demokratik jamiyatda erkin fikrlay oladigan shaxslar qadr-qimmatga ega bo‘ladilar. O‘z navbatida ular boshqalarning intilish va fikrlarini qadrlay oladilar. Qadr-qimmat shaxsning ijtimoiy va ma’naviy erkinligining muhim tomoni sifatida yuzaga chiqadi.

**Erkinlik** – mustaqil fikrlash uchun qo‘yilgan birinchi qadamdir. Mustaqil fikrning mavjudligi va rivojlanishi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning erkinlik darajasiga bog‘liq. Hamkorlikda o‘qitish jarayonida mustaqil fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘quvchilarning individual va jamoaviy darajada erkinligiga erishish zarur. Chunki «mustaqil fikrlash shaxsning xislati sifatida har qanday faoliyat turida individual va jamoaviy yutuqlarga erishishda yuqori ko‘rsatkichni ta’minlaydigan muhim omillardan biri bo‘lib qoladi». Shu bilan birga, «mustaqil fikrlash jamiyat insonga yaratib bergen imkoniyat va erkinliklarning mahsuli va in’ikosidir».

Tajribalar ko‘rsatishicha, turli sinfdagi o‘quvchilar orasidagi do‘stlik va o‘zaro hamkorlikning ko‘rsatkichlari xar xildir. I-II sinf o‘quvchilarida do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikka kirishish munosabatlari yetarlicha barqarorlashmagan bo‘ladi. Bunday munosabatlar tasodifiy, jiddiy bo‘lmagan mayllar natijasida vujudga keladi. Buni o‘quvchilarning do‘stlari tez-tez o‘zgarib turishlarida ham ko‘rish mumkin. 1-2 - sinf o‘quvchilar do‘stlik va hamkorlikning o‘zaro tenglik va majburiyatlarning bir xilda bajarilishi asosida shakllanishini yetarlicha tushunib yetmaydilar.

3-4 -sinf o‘quvchilarida esa ma’naviy hamkorlikka kirishish tajribasi nisbatan katta bo‘ladi. Ularda har tomonlama chuqur, mustahkam do‘stlik va hamkorlik munosabatlari namoyon bo‘ladi va bu ularning ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllanishlarida muhim o‘rin egallaydi. Do‘stlik tuyg‘ulari, o‘zaro hamkorlik munosabatlari asosida o‘z xatti-harakatlarini kelishgan holda amalga oshirishga harakat qilish tuyg‘ulari vujudga keladi. Buning natijasida ularda empatiya, o‘z quvonchlari va tashvishlarini baham ko‘rish tuyg‘usi qaror topadi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishda hanuzgacha kichik maktab yoshidagilar uchun ahamiyatli bo‘lmish o‘yin yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Jamoaviy o‘yinlar o‘quvchilar jamoasining jipslashuvini ta’minlaydi. O‘yinlar o‘quvchilar xulq-atvorlarining shakllanishida alohida ahamiyat kasb etib ularda shaxsiy sifatlarning tizimli tarzda vujudga kelishiga imkon beradi. O‘yinlar o‘quvchilarda irodaviylik, uyushqoqlik, topqirlik, tashabbuskorlikni shakllanitirish bilan bir qatorda, jamoaviy hamkorlik, do‘stlik hamda jamoa manfaatlari yo‘lida o‘z xulq-atvorini yo‘naltirish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. O‘quvchilar o‘yin natijasida atrofdagilarga foyda keltirish haqida o‘ylay boshlaydilar, ularda faxr-iftixor, quvonch, qoniqish, mehnatga hurmat, mehnatning inson hayotidagi ahamiyatini tushunish hissi qaror topadi. O‘quvchilarning o‘z qo‘llari bilan foydali narsalarni yasashga yo‘naltirilgan

maxsus mashg'ulotlar ular shaxsiyati va ijtimoiy ongingin rivojlanishida xam katta ahamiyat kasb etadi. Maqsadga yo'naltirilgan hamkorlikdagi faoliyat o'quvchilarning istiqboldagi harakatlarini rejalashtirishlariga ko'maklashadi. Ular o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni bajarishning samarali usullarini izlab topishga muvaffaq bo'ladilar. Shu bilan bir qatorda ular o'z-o'zlarini nazorat qilishga erishadilar. Bu tarzdagi umummehnat ko'nikmalari boshlang'ich sinf o'quvchilarini hamkorlikdagi ijtimoiy faoliyatga tayyorlashning muhim shartidir.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishda ushbu jarayon subyektlaridan quyidagilar talab etiladi:

- hamkorlikka asoslangan o'quv-biluv jarayonini loyihalashtirish;
- uni tashkil etish;
- o'quvchi hamda o'qituvchining hamkorlikda faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;
- hamkorlikka asoslangan o'quv-biluv jarayonini boshqarish va nazorat qilish;
- hamkorlikka asoslangan pedagogik faoliyatlar yig'indisini vujudga keltirish kabilalar.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishda faol bo'lmanan reproduktiv usullar bilan ishlaydigan o'qituvchilarning o'quvchilar bilan do'stona munosabat asosida hamkorlikda ishslash ko'nikmalarini rivojlanishiga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik hamkorlikka asoslangan o'quv-biluv jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilari qo'yilgan maqsadga erishishlari uchun, o'quvchilarini guruhli hamkorlikka undashlari zarur. Bunda o'qituvchi va o'quvchilar guruhi uchun umumiy muvaffaqiyatni ta'minlovchi vazifalarni hal qilish ustuvor ahamiyatga ega.

Bunday umumiylar vazifalar sirasiga quyidagilar kiradi:

- o'quvchilar guruhini hamkorlikda ishslash jarayoniga moslashtirish.
- hamkorlikda ishlayotgan o'quvchilarning qobiliyatları, umumiy rivojlanishlari, o'ziga xosliklarini tashxislashga o'rgatish.
- o'qituvchilarni hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan pedagogik faoliyatlarini tahlil qilib, takomillashtirib borishga odatlantirish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishda o'qituvchi uchun quyidagi vazifalar ahmiyatli bo'lib hisoblanadi:

1. Hamkorlikka asoslangan o'quv-biluv jarayonining barcha bosqichlari va uning natijalarini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qila olishlari, o'quvchilarning o'zaro hamkorlik qilishlariga imkon beradigan o'quv-biluv jarayonining maqsadi, mazmuni, pedagogik vositalari aniq namoyon bo'lishini ta'minlashlari.
2. Ta'lim mazmuni, o'qitish metodikasi va texnologiyalariga kiritilgan yangi o'quv elementlarini nazariy-didaktik jihatdan asoslab bera olishlari.

3. Olingan natijalarga tayangan holda kelgusidagi pedagogik faoliyatları, hatti-harakatlarını tuzatıb, takomillashtırıb borishları talab etiladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarining takomillashuvi o‘qituvchining hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv jarayoniga rahbarlik qilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu holatda ularda hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish va boshqarish mezonlarini o‘zlashtirganliklari; kasbiy, shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik modelni hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv jarayonida qo’llay olishlarida namoyon bo‘ladi.

Hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv jarayonida o‘quvchilarning hamjihatlikda rivojlanish darajalarini tashxislaydigan metodlarni qo’llay bilish, ta’lim jaranyonini loyihalashtira olish ko‘nikmasiga erishish – bularning barchasi o‘zaro hamkorlikda ishslash mexanizmlarining oqilona tashkil qilinganidan dalolat beradi.

Hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv vaziyati o‘z xarakteriga ko‘ra muntazam, rivojlanuvchi, jarayonli faoliyatdir. Ushbu pedagogik jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlash uchun o‘qituvchi va o‘quvchilarning xohish-irodasi, ongliligi, faolligi muhim ahamiyatga ega. Biroq, kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, an’anaviy o‘quv vaziyati, usullari, metodlari va vositalaridan voz kechish bir qadar murakkab bo‘lmoqda. Buning uchun o‘qituvchilar ham, o‘quvchilar ham hamkorlik qilishga ruhan tayyor bo‘lishlari kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Дьяченко В.К. Сотрудничество в обучении: О коллективном способе учебной работы: Кн. для учителя. – М.: Просвещение, 1991. – 192 с.
2. Князева Е.Н. Курдюмов С.П. Синергетика и новые подходы к процессу обучения / Е.Н. Князева, С.П. Курдюмов / <http://www.uni-dubna.ru>
3. Место и роль учителя в инновационных педагогических технологиях: Тез.докл. межвуз. науч.-пр. конф., 26–28 мая 1994 г. – Бирск: Б.и., 1994. – 206 с.
4. Dilova N.G‘. Pedagogik hamkorlik vositasida ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash imkoniyatlari //Xalq ta’limi. – Toshkent, 2012. – № 3. – B. 76 -77. (13.00.01 №17)
5. Dilova N.G‘. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliliklari //Uzluksiz ta’lim. – Toshkent: 2016. – № 2. – B.3 -7. (13.00.01 №9)
6. Dilova N.G‘. Uzluksiz ta’lim tizimida hamkorlik asosida pedagogik muomala va muloqot usullarini shakllantirish //Uzluksiz ta’lim. – Toshkent: 2017. – № 1. – B.9 -12. (13.00.01 №9)